

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

LATIPOV ASHUR ALI RUSTAM O'G'LI

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH ORQALI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Latipov Ashur Ali Rustam o‘g‘li

Xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zini o‘zi band qilish orqali
kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari 3

Latipov Ashur Ali Rustam o‘g‘li

Возможности сокращения бедности за счет самозанятости в сфере услуг 25

Latipov Ashur Ali Rustam ugli

Opportunities for poverty reduction through self-employment in the service
sector..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

LATIPOV ASHUR ALI RUSTAM O'G'LI

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH ORQALI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.2.PhD/Iqt2136 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida
(www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Pardayev Mamayunus Qarshibayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy taqrizchilar:	Toshnazarov Samiddin Nizomovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nasimov Dilmurod Abduloyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____
dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel./faks:
(99866) 233-38-72, (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi,
9-uy. Tel.: (99866) 231-12-53; ye-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muhammedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, sohadagi bandlar sonini oshirib borishga iqtisodiy tizimdagi muhim yo'nalishlardan biri sifatida yondashilmoqda. Hozirgi kunda "rivojlangan mamlakatlarning xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlar salmog'i 70 foiz va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining xizmat ko'rsatish sohasida bandlik rivojlangan Yevropa mamlakatlarida 75, AQShda 80, Yaponiyada 82 foizdan ortadi"¹. Aynan shu nuqtai-nazardan jahon miqyosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmi va sifatini oshirgan holda, xizmatlarning zamonaviy turlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur sohani rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish bu boradagi muhim jihat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida bugungi kundagi globallashtirish jarayoni hamda uning xizmatlar bozori shakllanishi va rivojlanishiga bo'lgan ta'siridan kelib chiqqan holda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, xizmatlar bozorida talab va taklifning egiluvchanligi, sohaning o'ziga xosligi, institutsionallashtirish va ijtimoiylashuvining kuchayishi, xizmatlar bozoridagi raqobat, yuqori ta'lim va kasb darajasini talab qiluvchi yangi faoliyat turlarining rivojlanishi, nostandart ish bilan bandlik shakllarining kengayishi, ish vaqti yangi modellaridan foydalanish, ishlovchilar daromadlarining ko'payishi, kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq masalalar, milliy mehnat bozori hamda transmilliy kompaniyalar va Xalqaro mehnat tashkiloti o'zaro faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Iqtisodiy strategiya bo'yicha muhim bandi – 2030 yilga qadar munosib haq to'lanadigan 10 millionta yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030 yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga erishamiz"². Ushbu tadbirlarning barchasining zamirida aholini yuqori mehnat daromadi bilan ta'minlash, kambag'allik darajasini qisqartirish, bandlikni oshirish evaziga aholining farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirishga erishish yotadi. Bu o'z navbatida yangicha yondoshuvlarni talab etib, o'zini o'zi band qilish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, xizmatlarning ommabop turlarini shakllantirish hamda sohada aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish yuzasidan chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Bularning hammasi mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada dolzarb mavzuga bag'ishlanganligini tasdiqlaydi.

¹ <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-62-son “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohani rivojlantirishga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmatlar sohasini rivojlantirish, unda o‘zini o‘zi band qilish yo‘llari, qolaversa kambag‘allikni kamaytirish mamlakatimizda ham, xorijda ham uzoq vaqt mobaynida o‘rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Xorijlik taniqli iqtisodchilardan A.Sen, P.Taunsend, S.B.Rountri, D.M.Keyns, Maykl Kremer, Abxidjit Banerdji, Ester Dyuflo, Angus Styuart Diton, Jeffery Saks, A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo, Y.Shumpeter, Uilyam Esterli, Dambisa Moyo, A.Gesta Esping, P.J.Prudon va boshqalarning ishlarida kambag‘allik muammolari o‘z aksini topgan³.

Ushbu masala bo‘yicha O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning turli masalalari bo‘yicha Q.X.Abdurahmonov, M.Q.Pardayev, M.M.Muhammedov, M.E.Po‘latov, J.R.Zaynalov, S.N.Toshnazarov, Sh.O.Quvandiqov, N.K.Zokirova, D.A.Artiqova, Sh.R.Xolmo‘minov, Z.Ya.Xudoyberdiyev, K.Z.Xomitov, G.Q.Abdurahmonova, N.U.Arabov, B.B.Mardonov shug‘ullanib kelmoqdalar⁴. Ammo ushbu mualliflar

³ Penguin Press, 2005); William Easterly, The Elusive Quest for Growth: Economists ‘Adventures and Misadventures in the Tropics (Cambridge: MIT Press, 2001); Dambisa Moyo, Dead Aid: Why Aid Is Not Working and How There Is a Better Way for Africa (London: Allen Lane, 2009); Shumpeter Y. Istoriya ekonomicheskogo analiza v 3 tt. – SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 2004.; Esping – Andersen, Gyost. Tri mira blagosostoyaniya kapitalizma. – Prinston, Nyu - Djersi: Princeton University Press. ISBN 9780069028573.; Prudon P. Bednost kak ekonomicheskix prinsip. (2-glava,s-4) Elektronnaya biblioteka. https://royallib.com/book/prudon_per/bednost_kak_ekonomicheskii_printsip.html

⁴ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti:nazariya va amaliyot. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: FAN. 2019; Abduraxmanov K.X., Zokirova N.K. Chelovecheskoye razvitiye: uchebnik. - T.: FGBOU VPO «REU im. G.V.Plexanova», 2014. - 320 s.; Pardayev M.Q. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari. Monografiya.-T:”Navro‘z” 2014.-264 b. Muhammedov M.M., Mardonov B.B. Xizmat ko‘rsatish sohasida aholi bandligi va daromadlari. Monografiya. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. 2021.186 b. Po‘latov M.E. Raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning ahamiyati. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari./ Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. 2023 yil 20 sentabr kuni.Samarqand. SamISI2023.B 4-8. Zaynalov J.R. Innovatsion moliyaviy xizmatlar: muammo va yechimlar/ -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.-368 b. Mirzayev Q.J. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. Darslik – Samarqan: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2022.252 B. Toshnazarov S.N. Osobennosti proyavleniya sinergeticheskogo podxoda v razvtii sferi

ishlarida xizmat ko'rsatish sohasida o'zini o'zi band qilish afzalliklari, qolaversa kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari tadqiqot ob'ekti sifatida batafsil o'rganilmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi hamda uning maqsadi va vazifalarini to'g'ri aniqlashga ham imkon beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko'rsatish sohasida o'zini o'zi band qilish orqali kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlaridan foydalangan holda ular samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining o'zini o'zi band qilish borasidagi ilmiy-nazariy masalalarni qarab chiqish;

xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsion iqtisodiyotning joriy qilinishi va o'zini o'zi band qilish ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qarab, innovatsion iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish va o'zini o'zi band qilish tushunchalariga paradigmalar hamda nazariy yondashuvlar asosida mazmunini ochib berish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va o'zini o'zi band qilishda xorijiy tajribalar va ulardan mamlakatimizda foydalanish masalalarini tadqiq qilish;

xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali o'zini o'zi band qilish yo'llarini takomillashtirish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari va unda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va rolini ochib berish;

aholining bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlashda o'zini o'zi band qilish darajasining o'rniga baho berish va tahlil natijasi bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda o'zini o'zi ish bilan band qilish bo'yicha dolzarb muammolardan innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va o'zini o'zi band qilishning strategik yo'nalishlarini tadqiq qilish;

uslug. Ekonomika i innovatsionnie texnologii, vip. 5 okt. 2016g. S 73-78. Quvandiqov Sh.O. Oilaviy tadbirkorlik: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Monografiya. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2020.-176 B. Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya). – T.: Fan va texnologiya, 2014; Xolmo'minov Sh.R. va boshqalar Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari (monografiya). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2018; Artikova D.A. Problemi dostijeniya ravnovesiya na rinke truda v usloviyax uglubleniya rinochnix reform.- T.: TGEU. 2006; Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. ILMZIYO, 2016.; Xomitov K.Z. O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012, Abduraxmanova G.Q. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2016. Xolmo'minov, Sh., & Arabov, N. (2020). INFRASTRUKTURA RINKA TRUDA. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(30). izvlecheno ot <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3062>

aholi bandligini ta'minlashda mahallaning o'zni va unda "Ko'mak jamg'armasi" modelidan foydalanish yo'llarini tadqiq etish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining o'zini o'zi band qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanish istiqbollari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda belgilab berish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, kambag'allikni qisqartirish yuzasidan tadqiqot o'tkaziladigan mahallalar tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida bilish nazariyasining induksiya va deduksiya, mantiqiy yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, miqdor va sifat, qiyosiy va omilli tahlil, taqqoslash, monografik kuzatish, sotsiologik so'rov kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "o'zini o'zi band qilish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni shaxsning mustaqil ravishda mehnat faoliyatini tashkil etishi, o'z biznesini yoki kasbiy xizmatlarini boshqarib, daromad topishi holatida erkin mehnat yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish orqali daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini beruvchi kambag'allikni qisqartirish jihatidan takomillashtirilgan;

mahallalarda ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan ko'p funksiyali "Ko'mak jamg'armasi"ni tashkil qilish asosida xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zini o'zi bandlar ulushini oshirish taklifi asoslangan;

hududlardagi "Ishga marhamat" monomarkazlarida professional kadrlarni tayyorlashda aholining kam ta'minlangan toifasi uchun o'zini o'zi band qilish shaklida daromad olishga ixtisoslashgan xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat turlarini rag'batlantiruvchi kvota belgilashni qo'llash taklifi asoslangan;

Samarqand viloyatida aholining bandlik darajasi o'zgarishiga o'zini o'zi band qilish yo'li bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlashda ekonometrikaning multiplikativ modelini qo'llagan holda 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zini o'zi ish bilan ta'minlash bo'yicha jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribalari tadqiq etilib, ulardagi ayrim tajribalarni mamlakatimizda qo'llashga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

mahallalarda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha "Ko'mak jamg'armasi"ni tashkil etilishi orqali institutsional va iqtisodiy asoslarni takomillashtirish bo'yicha o'zini o'zi band qilishda AKT qo'llagan holda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish taklifi asoslangan;

o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlash orqali kambag‘allikni qisqartirishda maksimal samaradorlikka erishish uchun sinergetik yondashuvni takomillashtirish va optimallashtirish uchun turli resurslardan samarali foydalanish va jamiyatni qo‘llab-quvvatlashning birgalikdagi kuchidan foydalanadigan model yaratilgan;

mahallada tashkil qilingan “mahalla yettiligi” tarkibiga ko‘mak jamg‘armasi tomonidan bajariladigan funksiyalarini tartibga solish va nazorat qilish vazifasini amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma‘lumotlari, mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida keltirilgan ma‘lumotlari, ishlab chiqish jarayonida qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlarning tadqiqot maqsadi hamda vazifalariga mosligi, ularning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, tahlil uchun olingan ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zini o‘zi band qilish faoliyat turining rivojlanishi uchun muammolar yechimini topish, qolaversa, xorijiy tajribalarni qo‘llash asosida mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zini o‘zi band qilish orqali kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublikadagi xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zini o‘zi band qilish faoliyatiga tatbiq etilishi, mahallalarda kambag‘al deb topilgan xonadonlarga ishlab chiqilgan dasturlar orqali ularning yashash tarzini yaxshilashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko‘rsatish sohasida o‘zini o‘zi band qilish orqali kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlaridan foydalangan holda ular samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “o‘zini o‘zi band qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini shaxsning mustaqil ravishda mehnat faoliyatini tashkil etishi, o‘z biznesini yoki kasbiy xizmatlarini boshqarib, daromad topishi holatida erkin mehnat yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish orqali daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini beruvchi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tavsiyalar. (O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 21 iyundagi 05/53-6-13013-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini beruvchi kambag‘allikni qisqartirish jihatidan takomillashtirilgan “o‘zini o‘zi band qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkonini yaratilgan;

mahallalarda ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta‘minlash imkonini beruvchi doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan ko‘p funksiyali “Ko‘mak

jamg'armasi"ni tashkil qilish asosida xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zini o'zi bandlar ulushini oshirish taklifi Samarqand viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 21 iyundagi 05/53-6-13013-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatidagi 2 ta shahar va 12 ta tumanda joylashgan mahallalarning aksariyat qismida "Ko'mak jamg'armasi" tashkil qilinib, undan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmi ishlab chiqilgan;

hududlardagi "Ishga marhamat" monomarkazlarida professional kadrlarni tayyorlashda aholining kam ta'minlangan toifasi uchun o'zini o'zi band qilish shaklida daromad olishga ixtisoslashgan xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat turlarini rag'batlantiruvchi kvota belgilashni qo'llash taklifi Samarqand viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 21 iyundagi 05/53-6-13013-sonli, Samarqand viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2023 yil 1 dekabrda 20/00 – 03/19 – 3033-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatdagi 1126 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridagi holat axborot-kommunikatsiyalarda jamlanib, har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu holat yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

Samarqand viloyatida aholining bandlik darajasi o'zgarishiga o'zini o'zi band qilish yo'li bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlashda ekonometrikaning multiplikativ modelini qo'llagan holda 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Samarqand viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 21 iyundagi 05/53-6-13013-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholining shu hududda yashayotgan bola tarbiyasi bilan band ayollarni, bularning shu hududdagi barcha ayollardagi hissasi, shu hududda yashayotgan ayollarning barcha erkaklarga nisbati, ushbu hududda yashovchi barcha erkaklarning mehnatga qobiliyatli aholiga nisbatining ta'siri aniqlanib, bandlikni oshirish bo'yicha ichki va tashqi imkoniyatlardan foydalangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 12 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 8 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining o'zini o'zi band qilish borasidagi ilmiy-nazariy masalalari**»ga bag'ishlangan bo'lib, unda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zini o'zi band qilishda ularning nazariy masalalari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining istiqbolli yo'nalishlarini joriy qilish orqali o'zini o'zi band qilish yo'llari, innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari keltirib o'tilgan. Mazkur bob bo'yicha tegishli xulosalar ham keltirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi jadal rivojlanishi bilan birga uning iqtisodiyotdagi o'rnini ham oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining YAIMdagi ulushi va ularning 2015-2023 yildagi o'zgarish dinamikasi⁵

Ko'rsat- kichlar	2015- yil	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
YAIM, mlrd. so'm	221 350,9	255 421,9	317 476,4	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738425,2	896 617,9	1066569,0
O'tgan yil-ga nisba-tan, %	107,2	105,9	104,4	105,5	106,0	102,0	107,4	105,7	106,0
Asosiy yilga nisbatan, %	100,0	115,4	143,4	192,7	240,7	273,5	333,4	405,1	481,8
Jami xizmatlar, mlrd. so'm.	86 674,5	99 665,5	116 901,5	151 512,6	192 929,1	223 049,8	272 109,1	347 972,9	437 822,2
O'tgan yil-ga nisba-tan, %	107,6	105,9	106,0	105,7	106,7	101,1	109,5	108,7	106,8
Asosiy yilga nisbatan, %	100,0	114,9	117,3	129,6	127,3	115,6	121,9	127,8	125,8
Xizmatlarning YAIMdagi ulushi, %	43,1	42,8	41,4	39,8	39,6	39,7	39,6	38,8	41,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda YAIM 2015-2023 yil davomida joriy bahoda 481,8 % o'sishga erishdi. Xizmat ko'rsatish sohasi pandemiyadan keyin 39,6 %dan 2023 yilda 41,0 %gacha ko'tarildi. Bunday tendensiya davom etmoqda. Shu tufayli sohada yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida, o'zini o'zi ish bilan ta'minlash bilan birga aholi farovonligining oshishiga ham erishildi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijasida axborot-kommunikatsiya va raqamli innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mehnat faoliyatini tashkil etishi, o'z biznesini yoki kasbiy xizmatlarini boshqarib, erkin mehnat yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish orqali daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini beruvchi kambag'allikni qisqartirish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar Samarqand viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi III-yo'nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlan-tirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan "Yo'l haritalari"da foydalanilgan. Jumladan, ushbu strategiyaning **34-maqsadida**: "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish" hamda VI-yo'nalishi milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish bo'limining **85-maqsadi**: "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" masalalari qo'yilgan. Aynan ushbu masala "O'zbekiston-2030" strategiyasida⁶ ham qayd etilgan bo'lib, bular 22-maqсад va 27-maqсадlarda o'z aksini topgan.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali o'zini o'zi band qilish borasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularni takomillashtirish masalalari bugungi kunda o'ta dolzarbligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 martda mamlakatimizda «2019 yilda aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasi to'g'risida»⁷ PQ-4227-son qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorning qabul qilinishi bilan o'zini o'zi band qilishning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilmoqda.

Tadqiqot jarayonida innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va o'zini o'zi band qilishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqildi. Ushbu yo'nalish doirasida o'zini o'zi band qilish orqali kambag'allikni qisqartirishning sinergetik samaraning "kuchlarni birlashtirish tamoyilidan foydalanish" (KBTF) modeli yaratildi. Bu madel erkin mehnat yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish orqali daromad manbalarini kengaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini beruvchi omil hisoblanadi.

Kambag'allikni qisqartirishning bir qancha yo'nalishlari mavjud. Ulardan biri aholining o'zini o'zi ish bilan band qilishdan iboratdir. Ushbu prinsipning qulayligi o'ziga ish o'rnini ochib olgan odam hech kimga tobe bo'lmaydi. O'ziga o'zi rahbar va o'ziga o'zi ijrochi. O'zini boshqaradi va o'zi ijro qiladi. Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 8 iyunida qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli qarorida ham qayd etilganiligi masalaning o'ta dolzarbligidan dalolat bermoqda.


⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni,

⁷ <https://lex.uz/docs/4245018>

Yuqoridagi qaror bilan o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun ro'yxatga 67 ta faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari kiritilgan edi. Ushbu ro'yxat ob'ektiv zaruriyatdan kelib chiqqan holda yildan-yilga ko'payib bugungi kunda ularning soni 101 taga yetdi.

Kambag'allikni kamaytirishning samarali strategiyalarini izlashda sinergetik ta'sir tamoyili, ayniqsa, o'zini o'zi ish bilan ta'minlash tashabbuslari kontekstida istiqbolli yondashuv sifatida paydo bo'ldi. Ushbu sharx o'zini o'zi ish bilan ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirishda sinergetik ta'sirlarni qo'llashni o'rganadi va uning shaxslar va jamoalarga ta'sirini baholaydi.

Sinergetik effekt ijobiy o'zgarishlar uchun katalizator hisoblanadi. Chunki, sinergetik ta'sir prinsipi ko'p omillarning birgalikdagi va kuchaytirilgan ta'sirini ta'kidlab, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha o'zini o'zi ish bilan ta'minlash tashabbuslarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash uchun kambag'allikni qisqartirishda KBTF modelidan foydalanishni tavsiya qildik. Buning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Kambag'allikni qisqartirishda KBTF modelining qamrab oluvchi subyektlar⁸

O'zini o'zi ish bilan ta'minlashda **mahalla** ta'sirining asosiy jihatlaridan biri bu mahalladagi har bir ishsiz fuqaroning aniq ro'yxatini shakllantirib ularning qaysi bir kasbga qiziqishlari, qobiliyatlarini to'g'ri o'rgangan holda ular bilan tizimli ravishda ma'lumotlar bazasini shakllantirish va mahalliy hokimiyat, soliq idoralari va kasbga o'rgatuvchi davlat tashkilotlari bilan doimiy aloqada bo'lib har bir fuqaroning bandligini, uning daromad topish yo'llarini yaratib berishda mahallaning o'rni katta bo'ladi.

Kambag'allikni kamaytirishda sinergetik ta'sirlarni qo'llashda **soliq idoralarining** ta'siri ham yuqori. Aholining o'zini o'zi band qilish bo'yicha ro'yxatdan o'tishdagi sodda mexanizmning yaratilishi, hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan soliq tushumlaridan o'sha o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning yashab turgan mahalla byujetiga ma'lum qismini

⁸ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

berilishi aholining o'zini o'zi band qilishga mahallaning ham qiziqishiga olib keladi.

O'zini o'zi ish bilan ta'minlashda sinergetik ta'sirning asosiy jihatlaridan biri bu ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Agar shaxslarda tegishli ko'nikmalar shakllansa, muvaffaqiyatli tadbirkorlik ehtimoli ortadi. Sinergetik yondashuv ko'nikmalarni rivojlantirishda **turli jamg'armalar** qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham juda asqatadi.

O'zini o'zi band qilishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda **banklarning** ham o'rni bor. Bu sinergetik ta'sir, ayniqsa, moliyaviy resurslardan foydalanishga qaratilgan tashabbuslarda yaqqol namoyon bo'ladi. Mikromoliyalashtirish, murabbiylik va bozor aloqalarini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish yangi boshlanuvchi tadbirkorlarni yanada keng qamrovli qo'llab-quvvatlash tizimini yaratadi. Ushbu kompleks yondashuv muvaffaqiyatsizlik xavfini kamaytiradi va o'zini o'zi ish bilan ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishga ta'sirini maksimal darajada oshiradi.

Jamiyatni qo'llab-quvvatlashda aniq dasturlar asosida ushbu sohani rivojlantirishda **Mahalliy hokimiyatning** ham o'rni bor. Bu sinergetik ta'sirning yana bir muhim jhati kuchlarni birlashtirgan holda taraqqiyotga ishonch tuyg'usini uyg'otadigan, hamkorlikni rag'batlantiradigan va tarmoqlarni barpo etuvchi o'zini o'zi ish bilan ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarning muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shadi.


Kambag'allikni qisqartirishda KBTF modelining markaziy g'oyasi, uning kambag'allikka qarshi kurashda asosiy vosita sifatida o'zini o'zi ish bilan ta'minlashga urg'u berilishi tadbirkorlik ruhi va individual tashabbusni ta'kidlaydigan yangi istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, sinergetik samarani o'zida mujassam etgan KBTF modeli o'zini o'zi ish bilan ta'minlashning turli tarkibiy qismlari qanday o'zaro ta'sir qilishi va o'zaro foyda olishi va shu bilan kambag'allikdan qutulishning yaxlit yo'lini yaratishi mumkinligini o'zida mujassam etgan.

Ishning ikkinchi bobida **“Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali o'zini o'zi band qilishni takomillashtirish yo'llari”** qarab chiqilgan. Ushbu bobda innovatsion iqtisodiyot sharoitida kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari va unda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va roli, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari, aholining o'zini o'zi band qilishida va kambag'allikni qisqartirishda mahallaning rolini oshirish masalalari o'rganilgan. Mazkur bob bo'yicha ham tegishli xulosalar qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “hududlarda bo'sh turgan va bir yildan buyon auksion savdolarida sotilmasdan turgan davlat mulki bo'lgan bino-inshootlar, shuningdek, kasb-hunar kollejarining foydalanilmasdan bo'sh turgan binolari Dastur ishtirokchilariga o'z xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish hamda «amaliy monomarkaz» tashkil qilish uchun foydalanishga tanlov (talabgor yagona bo'lganda — to'g'ridan-to'g'ri shartnoma) asosida ijara stavkasining

minimal miqdori bo'yicha ijaraga beriladi"⁹, degan ko'rsatmani bergan. Mahallalarda ushbu vazifani "Ko'mak jamg'arma"si zimmasiga yuklatilsa, bimalol bajarishi mumkin.

Mahallalarda ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan ko'p funksiyali "Ko'mak jamg'armasi"ni tashkil qilish asosida xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zini o'zi bandlar ulushini oshirish taklifi aholining kambag'alligini qisqartirishga qaratilgan bo'lib, eng avvalo, har bir mahallada aholining ishsiz, kambag'al qatlami aniqlanadi. Ushbu tadbirlarining bajarilish ketma-ketligi quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Aholining kambag'alligini qisqartirish orqali farovonligini ta'minlash tadbirlarining ketma-ketligi¹⁰

Rasmdan ko'rinib turibdiki, Aholining kambag'alligini qisqartirish orqali farovonligini ta'minlash uchun birinchi galda mazkur hududda qancha kambag'al va ishsiz odamlar borligi aniqlanadi. So'ngra ishsiz aholini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'riladi. Buning uchun o'zini o'zi band qilish va "Ko'mak jamg'armasida"dan foydalanish lozim bo'lar ekan. Ushbu jamg'arma har bir mahallada tashkil qilinadi. Bunga erishish uchun qo'yidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, **ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta'minlash maqsadida har bir mahallada doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan ko'p funksiyali "Ko'mak jamg'armasi"ni tashkil qilish va undan foydalanish tartibi ishlab chiqildi.** Natijada Samarqand viloyatidagi 2 ta shahar va 12 ta tumanda joylashgan 1126 ta mahallalarning aksariyat qismida "Ko'mak jamg'armasi" tashkil qilinib, undan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmi ishlab chiqildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ishsiz aholining statistikasi birinchi galda mahallada aniqlanib boshlanadi. Aholining nimaga qodirligi, ularning real ahvoli aynan shu mahallada aniq bo'ladi. Bularni inobatga olib, har bir mahallada ko'p funksiyali "Ko'mak jamg'armasi"ni tashkil qilishni tavsiya qildik. Ushbu jamg'arma ishsizlik muammosini hal etish, ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. O'zini o'zi band qilish bilan birga ushbu jamg'arma kasanachilikni ham rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ayniqsa, bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan vaqtincha ishlamaydigan ayollarga uy sharoitida kasanachilik yo'li bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.

Kasanachilikni rivojlantirishning ham ikkita yo'nalishi mavjud. Birinchisi birorta yirik korxonaga birlashtirish bo'lsa, ikkinchisi – shu jamg'arma hisobidan

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 iyunda "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-sonli farmoni. <https://lex.uz/>.

¹⁰ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tegishli sharoitlarni yaratish masalasidir. Bunda bola tarbiyasi bilan vaqtincha band bo‘lib turgan ayollarni uyda tikuvchilik qilishi, kiyim-kechaklarni ta‘mirlashi kabi yumushlar bilan shug‘ullanadi va bir vaqtning o‘zida uydan chiqmagan holda tegishli mablag‘ ham ishlash imkoniyati yaratiladi. Bu yo‘nalishlarning tarkibiy tuzulishi quyidagi rasmda keltirilgan (3-rasm).

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, “Ko‘mak jamg‘armasi”ning shakllanishda ikkita yo‘nalish va ishlatilishi bo‘yicha ham ikkita yo‘nalish belgilangan.



3-rasm. “Ko‘mak jamg‘armasi”ning shakllanish va ishlatilishi bo‘yicha o‘zaro bog‘liqlik modeli¹¹

Bularning o‘zaro bog‘liqliklari shu bilan harakterliki, mazkur jamg‘arma biror maqsad bilan shakllantiriladi va mos ravishda u aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishiga xizmat qiladi. Jumladan, jamg‘armaga yo‘naltirilgan moliyaviy mablag‘lar davlat tomonidan beriladigan mablag‘lar, o‘zini o‘zi band qilishda to‘lanadigan mablag‘lar, mahallaga xayriya tariqasida beriladigan mablag‘lar kabi tushumlarni kiritish mumkin. Jamg‘armaga yo‘naltirilgan inson kapitaliga hozirgi shakllangan yettilik, valantyorlar, mahallada tashkil qilingan turli jamoat tashkilotlari (nuroniylar kengashi, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar mas‘ullari, xotin-qizlar kengashi kabilar).

Mazkur jamg‘armaning vazifalariga mahalladagi ishsiz aholini ish bilan ta‘minlash va o‘zini o‘zi band qilishga ko‘maklashadi va ularga tegishli sharoit yaratish bilan shug‘ullanadi. Mazkur jamg‘armaning telefoni keng miqyosda tarqatiladi va unda barcha ishsiz va uyda o‘tirgan yosh bolali ayollar ro‘yxati ham shakllantiriladi. Jamg‘armaning mutasaddisi telefon orqali kimga qanday ishchi kerak bo‘lsa, tegishli tarzda ularni bir-biri bilan bog‘lab jarayonning sodir bo‘lishiga ko‘maklashadi. Agar shunday jamg‘arma mahallalarda faoliyat ko‘rsatsa hozirgi shaharning turli burchaklarida faoliyat ko‘rsatayotgan “mardikor bozori”ga hojat qolmaydi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, mahalladagi “Ko‘mak jamg‘arma”si bir qator afzalliklarga ega. Bularni e‘tiborga olish kerak, deb o‘ylaymiz.

Birinchidan, “Ko‘mak jamg‘armasi” ishsizlarning ish tajribasiga ega bo‘lishi va foydali ishlar bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ular bekor turish o‘rniga, davlat infratuzilmasini yaxshilash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish yoki mahalliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan turli loyihalarga jalb

¹¹ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

etilishi mumkin. Shunday qilib, “Ko‘mak jamg‘armasi” nafaqat odamlarga daromad olish imkonini beradi, balki ijtimoiy faollikka va butun jamiyat rivojiga ham hissa qo‘shadi.

Ikkinchidan, “Ko‘mak jamg‘armasi” kadrlar tayyorlash va malaka oshirish platformasiga aylanishi mumkin. Jamg‘arma doirasida ishsizlar qo‘shimcha ta‘lim yoki ishlash uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha malaka oshirishlari mumkin. Bunday ta‘lim dasturlari ishsizlarni nafaqat yangi ish o‘rinlariga tayyorlash, balki ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, “Ko‘mak jamg‘armasi” kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin. Ko‘pgina ishsizlar tadbirkorlik salohiyatiga ega bo‘lishi mumkin, lekin o‘z biznesini boshlash uchun zarur resurslarga ega emas. Jamg‘arma bunday tadbirkorlarga moliyaviy yordam va maslahatlar berib, o‘z ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga yordam berishi mumkin.


To‘rtinchidan, “Ko‘mak jamg‘armasi” ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash va kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi. Jamg‘arma faoliyati doirasida mablag‘larning bir qismini ishsizlar va ularning oila a‘zolarining moddiy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirish mumkin. Bu vaqtinchalik moliyaviy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy yordam xizmatlaridan foydalanish, sog‘liqni saqlash yoki yosh bolalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari xayr-sahovat egalari kimga ko‘mak berishga qiynalib topolmay qolsa, ushbu mahallalarda tashkil qilingan “Ko‘mak jamg‘armasi”ga o‘zining moddiy yordamini ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ko‘p funksiyali “Ko‘mak jamg‘armasi” ishsizlik muammosini hal etish va ishsiz aholini vaqtinchalik ish bilan ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Chunki ushbu jamg‘arma jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida “O‘zbekiston - 2030” dasturida ko‘zda tutilgan ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va o‘zini o‘zi band qilishning strategik yo‘nalishlari”** tadqiq qilingan. Ushbu bobda aholining bandligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar va ularni aniqlashda o‘zini o‘zi band qilish darajasining o‘rni qarab chiqilgan, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda o‘zini o‘zi ish bilan band qilish bo‘yicha dolzarb muammolardan innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va o‘zini o‘zi band qilishning strategik yo‘nalishlarini tadqiq qilish imkoniyatlari, hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanish istiqbollari qarab chiqilgan. Ushbu bob bo‘yicha tegishli xulosalar ham qilingan.

Tadqiqot natijasida hududlardagi “Ishga marhamat” monomarkazlarida professional kadrlarni tayyorlashda aholining kam ta‘minlangan toifasi uchun o‘zini o‘zi band qilish shaklida daromad olishga ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi faoliyat turlarini rag‘batlantiruvchi kvota belgilashni qo‘llash taklifi asoslangan. Ish bilan bandlikning o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan o‘zini

o'zi ish bilan band qilish prinsipi ham aynan iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Natijada ish bilan doimiy bandlik tufayli, oilaga daromad tushib turishi evaziga kambag'allik ham qisqarib boradi. Shuning uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog'liq inqilob mamlakatimizning iqtisodiyotini va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash uchun har tomonlama ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bularning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (4-rasm).



4-rasm. AKTlar bilan bog'liq raqamli innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi va uning o'zini o'zi band qilish bilan bog'liqligi¹²

Rasmdan ko'rish mumkinki, raqamli texnologiyalarni joriy qilish barcha iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni tezlatish imkonini beradi, ammo bu jarayonlarning tezlashuvi oqibatida mamlakatda qanday o'zgarishlar ro'y berishi – iqtisodiyotning rivoji yoki tanazzulga yuz tutishi shak-shubhasiz inson kapitalining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. Xomashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Qolaversa, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi”¹³.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi talablariga mos holda AKTlar bilan bog'liq yangi ish o'rinlarini yaratilishi malakasiz ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi. Keyingi bosqich esa o'quv jarayonining barcha sohalariga innovatsion iqtisodiyot talablariga mos fanlarni kiritishni taqozo qiladi va milliy iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan malakali va sifatli kadrlarni yetkazib berish bugungi kunda ta'lim

¹² Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ <https://president.uz/uz/lists/view/2604>

